

**SH.H. TASHMATOV
X.S. ASATULLAYEV
Z.G. ALLABERGANOV**

IQTISODIY TA'LIMOTLAR TARIXI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

SH.H.TASHMATOV, X.S.ASATULLAYEV,
Z.G.ALLABERGANOV

IQTISODIY

TA'LIMOTLAR TARIXI

O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
to'monidan darslik sifatida tavsiya etilgan

Toshkent
IQTISOD-MOLIYA
2019

UO'K 330.8(075)=512.133
KBK 65.02ya7

Taqrizchilar: *i.f.d., prof. F.T.Egamberdiyev;*
i.f.d., prof. E.A.Akromov

T29 Iqtisodiy ta'limotlar tarixi: Darslik / Sh.H.Tashmatov,
X.S.Asatullayev, Z.G.Allaberganov; – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2019.
– 352 b.

Iqtisodiy ta'limotlar tarixi bo'yicha mazkur darslik kadrlar tayyorlash milliy dasturi, oliy o'quv yurtlarida bakalavrlar tayyorlash davlat andozasi talablarini hisobga olgan holda “Iqtisodiy ta'limotlar tarixi” fani dasturi asosida tayyorlandi. Har bir mavzu bir-biri bilan mantiqan bog'langan bo'lib, turli davrlarda yashab ijod qilgan olim va mutafakkirlarning iqtisodiy fikrlar sohasidagi tarixiy merosi va g'oyaviy boyliklarini o'rganishga qaratilgan. Iqtisodiy fanda oldin amal qilib kelingan va hozir amal qilayotgan alohida maktab va yo'nalishlarning konsepsiya va nazariyalari, ularning o'zaro bog'liqligi hamda o'ziga xos xususiyatlariga alohida e'tibor berilgan. Ularni o'rganish iqtisodiy bilimlarni mustahkamlashga va chuqurlashtirishga, mamlakatimizda va jahonda sodir bo'layotgan iqtisodiy hodisalarni mustaqil tahlil qilishga, to'g'ri xulosa chiqarishga yordam beradi.

Darslik Oliy va O'MTV tomonidan tasdiqlangan o'quv rejadagi fanning nomiga to'liq mos keladi va Oliy va O'MTV tomonidan tasdiqlangan chet ellik olimlar Garri Landriz, David K. Kolanderlar tomonidan tayyorlangan “History of economic thought” dan foydalanilgan.

Darslik iqtisodiy yo'nalishdagi barcha bakalavrlar uchun mo'ljallangan.

UO'K 330.8(075)=512.133
KBK 65.02ya7

ISBN 978-9943-13-822-3

© Sh.H.Tashmatov, X.S.Asatullayev,
Z.G.Allaberganov, 2019
© “IQTISOD-MOLIYA”, 2019

KIRISH

Bu fanning maqsadi avvalgi ortodoksal g'oyalar zamonaviy iqtisodiy nazariyaning mazmuni va predmetiga qo'shgan hissalarini va shu bilan birga ortodoksal bo'lmagan boshqa g'oyalarning zamonaviy iqtisodiy ta'limotlarning shakllanishidagi ahamiyatini ko'rsatgan holda iqtisodiy nazariyaning asrlar davomida shakllanishini tasvirlab berishdan iborat. Kitobda iqtisodiy nazariyadagi asosiy uslubiy masalalar, iqtisodiy nazariyaning fan sifatida rivojlanishi va o'sha davrning iqtisodiy holati o'rtasidagi bog'liqlik hamda yaratilgan nazariyaning mazmunini to'laroq tushuntirib beruvchi uning ichki bog'liqliklari va ishlash mexanizmlari ko'rib chiqilgan va tahlil qilingan. Bundan tashqari kitobda alohida olingan g'oya va fikrlarning iqtisodiy nazariyaning rivojlanishidagi ahamiyati va o'z o'rnida nazariyaning ijtimoiy-iqtisodiy siyosat shakllanishidagi ahamiyati tushuntirilgan. Tabiiyki, bu iqtisodiy ta'limotlar kishilarning dunyoqarashi va rasmiy nazariyalaridan tashkil topgan. Iqtisodiy dunyoqarash shaxsning dunyodagi voqeliklarni o'z ongida aks ettirishidir. Iqtisodiy nazariya esa ana shu dunyoqarashning soddalashtirilgan shakli modellaridan tashkil topadi. Alohida olingan iqtisodchining qarashlarini tushinish uchun uning ham dunyoqarashi, ham nazariy modeli qanday ekanligini o'rganish lozim.

Iqtisodiyot bu ijtimoiy fan. U jamiyat duch keladigan muammolarni ko'rib chiqadi, chunki insonlar mavjud tovar va xizmatlar miqdoridan ko'proq iste'mol qilishni xohlaydilar va natijada nisbiy tanqislik muammosi kelib chiqadi. Iste'molchilar xohishlari odatda chegaralanmagan va cheksizdir, ammo resurslar cheklangandir. Tanqislik muammosini hal qilish uchun cheklangan iqtisodiy resurslarni cheklanmagan muqobil variantlar (xohish-istaklar) o'rtasida adolatli taqsimlaydigan ijtimoiy mexanizm zarur. Bunday taqsimot bir tarafdan iste'molchi istaklarini kamaytirishi va cheklashi, ikkinchi tomondan esa iqtisodiy resurslar va ne'matlarni yetkazib berishni ko'paytirishi kerak.

Tarixda tanqislik muammosini bartaraf etish uchun to'rtta mexanizm qo'llanilgan. Bu mexanizmlarning eng qadimiysi dastlabki ayrim jamiyatlarda keng tarqalgan va bugungi kunda ham qo'llaniladigan zo'ravonlik (kuch ishlatish) hisoblanadi. Keyinchalik uning o'rniga resurslar taqsimotining oldingi usullariga asoslangan ortodoks mexanizm vujudga keldi. Sivilizatsiya bilan birga resurslar taqsimoti bilan shug'ullanuvchi boshqa bir ijtimoiy mexanizm, ya'ni hukumat institutlari va cherkov ko'rinishidagi hokimiyat qaror topdi. To'rtinchi resurs-taqsimlash instituti bozor bo'lib, u yillar davomida rivojlanib keldi. Bu mexanizm G'arbiy Yevropada feodalizm zaiflashuvi va sanoatlashgan, bozorga yo'naltirilgan jamiyatlar rivojlanishi davrida asosiy taqsimlovchi mexanizmga aylandi.

Zamonaviy iqtisodiy nazariya ko'proq hozirgi jamiyatda tanqislik sababli yuzaga keladigan muammolarni qanday hal qilinishini o'rganadi. U birlamchi resurs-taqsimlovchi mexanizm sifatida cherkov, an'analar va davlat o'rnini egallagan bozor mexanizmiga asosiy e'tiborni qaratadi. Shunday bo'lsada, bu mexanizmlar bir-birini rad etmaydi va ortodoksaldavlat-cherkov iqtisodiyotidan bozor iqtisodiyotiga o'tish dunyodagi barcha jamiyatlarda ham ketma-ketlikda amalga oshmagan. Ba'zi hududlar, deyarli butun qit'alar hali ham qadimgi usullarga (mexanizmlarga) asoslangan iqtisodiyotdan chiqa olishmayapti. Ba'zi jamiyatlar feodal iqtisodiyotdan resurslar taqsimoti davlat tomonidan amalga oshiriladigan buyruqli iqtisodiyotga o'tdilar. Chunonchi, 1900-yillarning boshida bir necha jamiyatlar resurslar taqsimoti davlat tomonidan nazorat qilinadigan rejali iqtisodiyotga o'tdi. Sharqiy Yevropada buyruqbозlik iqtisodiyotidan bozor iqtisodiyotiga o'tish, ammo natijasi noaniq bo'lgan jarayonlarni ko'rishimiz mumkin.

Bozor mexanizmi asosiy taqsimot mexanizmi ekanligi u yagona mexanizm ekanligini bildirmaydi. Zamonaviy bozorga asoslangan jamiyatlar kuch, an'ana va hokimiyat bilan birga bozor mexanizmidan ham foydalanishadi. Yevropa va Shimoliy Amerikada ijtimoiy va siyosiy kuchlar ham bozor taqsimotiga doimiy ravishda ta'sir o'tkazib kelishmoqda.